
Xizmat vazifasini sidqidildan o'tab kelayotgan bir guruh harbiy
hizmatchilarga ehtirom ko'rsatildi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14 yanvar
- Vatan himoyachilari kuni Qo'shtepa tumanida ham keng nishonlandi.

Bayram munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev va
sektor rahbarlari tumanimizdagi harbiy hizmatchilarni bayram bilan muborakbod
etdilar.

Tantanali tadbirda Vatan tinchligi yo'lida fidoyilik va yuqori natijalar ko'rsatgan, xizmat
vazifasini sidqidildan o'tab kelayotgan bir guruh harbiy hizmatchilarga, shuningdek
yaqinda nishonlangan O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni va
bugungi sana munosabati bilan prokuratura xodimlariga tuman hokimligining
tashakkurnomasi hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

2025-01-14 21:04:05